

LAW • TECHNOLOGY • INNOVATION • JUSTICE

INTERNATIONAL
PEER-REVIEWED
JOURNAL

 JUNE 2026



“UNILEX GLOBAL” LLC

Raqamli huquq va innovatsiya jurnali

Journal of Digital Law and Innovation

June, 2026

VOLUME 1, ISSUE 1



EDITORIAL TEAM

Editor-in-Chief, Tukhtashev Hikmatilla Ismatillaevich - Head of the Department of Legal Sciences, Doctor of Philosophy in Legal Sciences (PhD), TIAME National Research University, Tashkent, Republic of Uzbekistan.

1. **Editorial Board Member Borotov Mirodiljon Xomudjonovich** — Doctor of Legal Sciences, Professor, Head of the Department of Civil Law, International Law and International Organizations, Institute of State and Law of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
2. **Editorial Board Member Maripova Sevarxon Aribjanovna** — Doctor of Philosophy in Legal Sciences (PhD), Associate Professor, Department of Social Sciences, Cyber University State University, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
3. **Editorial Board Member Kaharova Munira Maxamajanovna** — Doctor of Political Sciences (DSc), Researcher, Institute of Criminology of the Republic of Uzbekistan, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
4. **Editorial Board Member Yuldashev Mutalib Ibrohimovich** — Doctor of Economic Sciences, Professor, Department of Economics, Tashkent University of Science and Technology, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
5. **Editorial Board Member Bafaev Shukhrat Gafurovich** — Doctor of Legal Sciences, Head of the Tashkent City Branch, Center for the Analysis of Democratic Processes, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
6. **Editorial Board Member Khodjaeva Aziza Bakhtiyarovna** — Doctor of Philosophy in Legal Sciences (PhD), “Academy of Labor and Social Relations” under the Federation of Trade Unions of the Republic of Uzbekistan, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
7. **Editorial Board Member Khudoyberdieva Viloyat Jabbrovanovna** — Candidate of Legal Sciences (PhD), Olmazor District Department of Public Education, Tashkent City, Republic of Uzbekistan.
8. **Editorial Board Member Boboumarova Munira Kurbonovna** — Doctor of Philosophy in Legal Sciences (PhD), Department for Organization of Investigative Activities, Investigation Division, Tashkent City Internal Affairs Department, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
9. **Editorial Board Member Usmonov Vosid Muhammadievich** — Doctor of Philosophy in Legal Sciences (PhD), Diplomatic University, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
10. **Editorial Board Member Mirzayeva Malika Baxadirovna** — Doctoral Researcher, PhD, Associate Professor, Department of Digital Technologies and Artificial Intelligence, Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers – National Research University, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
11. **Editorial Board Member Allayorov Tulqin Ruziqulovich** — Doctor of Philosophy in Philology (PhD), Associate Professor, Nizami Named Tashkent State Pedagogical University, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
12. **Editorial Board Member Tosheva Maftuna Anvar kizi** — Doctor of Philosophy in Legal Sciences (PhD), Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers – National Research University, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
13. **Editorial Board Member Askarov Jaloliddin Toychievich** — Doctor of Philosophy in Legal Sciences (PhD), Deputy Head, Department of Business Law, Tashkent State University of Law, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
14. **Editorial Board Member Abdixakimov Islombek Bahodir o'g'li** — Master of Law (LL.M), Head of the Artificial Intelligence and Legal Tech Laboratory, Tashkent State University of Law, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
15. **Editorial Board Member Kalandarov Aminjon Amondullayevich** — Doctor of Philosophy in Legal Sciences (PhD), Acting Associate Professor, Department of Business Law, Tashkent State University of Law, Tashkent, Republic of Uzbekistan.
16. **Editorial Board Member Hakimov Komil Bakhtiyarovich** — Doctor of Legal Sciences (DSc), Professor, Head of the Department of Criminal Law, Criminology and Anti-Corruption, Tashkent State University of Law, Tashkent, Republic of Uzbekistan.

CONTENTS

03

**XUDOYBERDIYEV XUMOYUNBEK XABIBULLA O'G'LI,
QURVONBOYEV ASLBEK AZIZJON O'G'LI**

KIBERXAVFSIZLIKNING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI
VA MILLIY XAVFSIZLIKKA TA'SIRI

13

SATTAROV ULUG'BEK UMED O'G'LI

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KIBERXAVFSIZLIK
MUAMMOLARI: ZAMONAVIY XAVFLAR VA BARQAROR
RIVOJLANISH YONDASHUVLARI

20

MANNABJONOVA DURDONA ABDUXALIL QIZI

DAVLAT IDORALARIDA SUN'IY INTELLEKTDAN
FOYDALANISHNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH

34

HUSANOVA SHABBONA BAHROMOVNA

RAQAMLI MUHITDA INTELLEKTUAL MULK
HUQUQINING MUHOFAZASI

40

RIXSIYEV MUHAMMADAZIZ MUZAFFAR O'G'LI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA
KIBERJINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHISHNING
KONSITUTSIYAVIY-HUQUQIY VA XALQARO-
HUQUQIY ASOSLARI

54

BOYMIRZAYEVA MADINA IBROHIM QIZI

SUN'IY INTELLEKTNING HUQUQ TIZIMLARI VA ODIL
SUDLOV FAOLIYATIGA TA'SIRI



KIBERXAVFSIZLIKNING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI VA MILLIY XAVFSIZLIKKA TA'SIRI

Xudoyberdiyev Xumoyunbek Xabibulla o'g'li¹, Qurvonboyev Aslbek Azizjon o'g'li²

¹“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti Yurisprudensiya
yo'nalishi 4-kurs talabasi

²“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti Yurisprudensiya
yo'nalishi 4-kurs talabasi

MAQOLA MA'LUMOTI

Kalit so'zlar:

Kiberxavfsizlik,
kiberhuquq,
kiberjinoyat,
konstitutsiyaviy asos,
modda,
raqamli tahdid,
javobgarlik

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada axborot texnologiyalari rivojlanishi sharoitida yangi kibermakondagi munosabatlarni huquqiy tartibga solish, xususan, kiberxavfsizlik masalalari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada kiberxavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan me'yoriyhuquqiy hujjatlar, huquqbuzarliklar uchun javobgarlik asoslari va kiberjinoyatlarga qarshi kurash mexanizmlari atroflicha tahlil qilinib, ushbu sohaning O'zbekiston Respublikasi milliy xavfsizligini ta'minlashdagi strategik ahamiyati yoritiladi.

CONSTITUTIONAL FOUNDATIONS OF CYBERSECURITY AND ITS IMPACT ON NATIONAL SECURITY

ARTICLE INFO

Keywords:

Cybersecurity,
cyber law,
cybercrime,
constitutional basis,
article,
digital threat,
responsibility

ABSTRACT

This article examines the legal regulation of relations in the new cyberspace in the context of the development of information technologies, in particular, issues of cybersecurity. The article also analyzes in detail the regulatory legal acts aimed at ensuring cybersecurity, the grounds for liability for offenses, and the mechanisms for combating cybercrime, highlighting the strategic importance of this area in ensuring the national security of the Republic of Uzbekistan.

КОНСТИТУЦИОННЫЕ ОСНОВЫ КИБЕРБЕЗОПАСНОСТИ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА НАЦИОНАЛЬНУЮ БЕЗОПАСНОСТЬ

ИНФОРМАЦИЯ СТАТЬИ

Ключевые слова:

Кибербезопасность,
киберправо,
киберпреступность,
конституционная основа,
статья,
цифровая угроза,
ответственность

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается правовое регулирование отношений в новом киберпространстве в условиях развития информационных технологий, в частности, вопросы кибербезопасности. Также в статье подробно анализируются нормативно-правовые акты, направленные на обеспечение кибербезопасности, основы ответственности за правонарушения и механизмы борьбы с киберпреступлениями, освещается стратегическое значение данной сферы в обеспечении национальной безопасности Республики Узбекистан.

KIRISH

Axborot texnologiyalarining, jumladan, Internet tarmog'ining keng tarqalishi, sun'iy intellektning paydo bo'lishi va takomillashuvi natijasida yangi kiber makon shakllandi. Bu esa mazkur munosabatlarni har taraflama huquqiy tartibga solish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Qolaversa, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, jamiyat faoliyatining keng sohalarida turli kompyuter texnologiyalar bilan ta'minlanadigan axborot xizmatlarining joriy qilinishiga olib keldi. Bu o'z navbatda yangi kiber huquq sohasining paydo bo'lishiga turtki bo'ldi. Kiber huquq axborotlashtirish, axborot resurslari va axborot tizimlaridan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga hamda himoya qilishga qaratilgan huquq sohasidir. [1]

Kiber huquqning shakllanishi va rivojlanishi, o'z navbatida, virtual makonda yuzaga keladigan xavf-xatarlarni chuqur o'rganish hamda ularni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish zaruratini keltirib chiqardi. Shu bois, kiber huquq bilan chambarchas bog'liq bo'lgan kiberxavfsizlik masalalari alohida dolzarblik kasb etib, ularning huquqiy asoslarini o'rganish keyingi muhim yo'nalishga aylandi.

Kiberxavfsizlik hozirda yangi kirib kelgan tushunchalardan biri bo'lib, unga berilgan turlicha ta'riflar mavjud. Xususan, CSEC2017 Joint Task Force manbasida kiberxavfsizlikka quyidagicha ta'rif berilgan: kiberxavfsizlik – hisoblashlarga asoslangan bilim sohasi bo'lib, buzg'unchilar mavjud bo'lgan sharoitda amallarni to'g'ri bajarilishini kafolatlash uchun

o'zida texnologiya, inson, axborot va jarayonlarni mujassamlashtiradi. [2] U xavfsiz kompyuter tizimlarini yaratish, amalga oshirish, tahlillash va testlashni o'z ichiga oladi. Kiberxavfsizlik ta'limning mujassamlashtirilgan bilim sohasi bo'lib, qonuniy jihatlarni, siyosatni, inson omilini, etika va risklarni boshqarishni o'z ichiga oladi. Tarmoqlar sohasida faoliyat yuritayotgan Cisco tashkiloti esa kiberxavfsizlikka quyidagicha ta'rif bergan [3]: Kiberxavfsizlik – tizim, tarmoq va dasturlarni raqamli hujumlardan himoyalash amaliyoti. Ushbu kiberxujumlar odatda maxfiy axborotni boshqarish, almashtirish yoki yo'q qilishni; foydalanuvchilardan pul undirishni; normal ish faoliyatini buzishni maqsad qiladi. Hozirgi kunda samarali kiberxavfsizlik choralarini amalga oshirish insonlarga qaraganda qurilmalar soni va turlarining kattaligi va buzg'unchilar salohiyatini ortishi natijasida amaliy tomondan murakkablashib bormoqda.

Kiberxavfsizlikni ta'minlash har qanday mamlakat uchun muhim bo'lgan davlat vazifasi hisoblanadi. Shu sababli, bu sohadagi yagona davlat siyosati O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadi. Mamlakatning strategik rivojlanish dasturlarida, jumladan, 2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida [4] ham aniq vazifalar ko'rsatib o'tilgan. Strategiya doirasida "...axborot xavfsizligini ta'minlash va axborotni himoya qilish tizimini takomillashtirish, axborot sohasidagi tahdidlarga o'z vaqtida va munosib qarshilik ko'rsatish" kabi choralar bilan birga, kiberjinoyatchilikni fosh etish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan." Bundan tashqari, Prezidentning "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"ga oid Davlat dasturi to'g'risida"gi Farmonida "2020-yil 1-sentyabrga qadar kiberxavfsizlikka doir milliy strategiya va qonun loyihasini ishlab chiqish" kabi vazifalar belgilangan bo'lib, ularni amalga oshirishda o'quv qo'llanmalarini ishlab chiqishga e'tibor qaratish muhim ahamiyatga ega. [5]

O'zbekistonda kiberxavfsizlik davlat tomonidan ta'minlanadi. Xususan, kiberxavfsizlik quyidagilar orqali ta'minlanadi:

- kiberxavfsizlikka tahdidlarga qarshi turish uchun iqtisodiy, siyosiy, tashkiliy va boshqa xarakterdagi tadbirlarni amalga oshirish;
- O'zbekiston Respublikasining jahon axborot makoniga va zamonaviy telekommunikasiya tizimlariga qo'shilishi;
- konstitutsiyaviy tuzumni zo'ravonlik bilan o'zgartirish, O'zbekiston Respublikasining hududiy yaxlitligini, suverenitetini buzish, hokimiyatni egallab olish yoki hokimiyatdan qonuniy ravishda saylangan yoki tayinlangan hokimiyat vakillarini olib tashlash va davlat

tuzumiga boshqa tajovuzlarni amalga oshirishga qaratilgan da'vatlarni o'z ichiga olgan ma'lumotlarning tarqalishidan himoya qilish;

- ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni qo'zg'atishga qaratilgan urush va zo'ravonlik, shafqasizlik, terrorizm va diniy ekstremizm g'oyalarini targ'ib qiluvchi ma'lumotlarni tarqatishga qarshi kurashish. [6]

Mazkur vazifalarning muhimligi sababli, 2018-yilda Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi (hozirgi Raqamli texnologiyalar vazirligi) tizimida aloqa va axborotlashtirish sohasida nazoratni amalga oshiruvchi maxsus davlat inspeksiyasi tashkil etilgan. [7]

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Kiberxavfsizlikni ta'minlashning konstitutsiyaviy asoslari, birinchi navbatda, shaxsiy axborotning himoyasi va uning uzatilishining asosiy huquqiy prinsiplari orqali belgilanadi. Bu prinsiplar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 33-moddasida [8] mustahkamlangan bo'lib, unda shaxsiy axborotlarning himoyasi va ulardan foydalanishning qonuniy ta'minoti kafolatlanadi.

Shaxsiy axborot daxlsizligini kiberfazoda ta'minlash, Konstitutsiyamizning boshqa moddalarida ham o'z aksini topgan bo'lib, quyidagi asosiy normalarga tayanadi:

Shaxsiy hayot daxlsizligi va yozishmalar, telefon va telekommunikatsiya xabarlarining sir tutilishi (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasi);

Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 33-moddasi);

Axborotga ega bo'lish va uni tarqatish erkinligi (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 33-moddasi).

Bundan tashqari, kiberxavfsizlikni ta'minlash davlatning keng qamrovli konstitutsiyaviy majburiyatlarini o'z ichiga oladi. Bularga shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish, davlatning milliy xavfsizlikni ta'minlash majburiyati, axborot kommunikatsiyalarini rivojlantirish, xalqaro shartnomalar qoidalariga rioya qilish hamda iqtisodiy, ijtimoiy va ma'muriy sohalarda axborot tizimlarini tashkil etish va saqlashni ta'minlash kabi kafolatlar kiradi.

O'zbekiston Respublikasida kiberxavfsizlik sohasini huquqiy tartibga solish va ta'minlash bo'yicha keng qamrovli qonunchilik bazasi izchil shakllantirib kelinmoqda. Kiberxavfsizlik

sohasidagi islohotlarning asosiy yo‘nalishlari quyidagi me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilab berilgan:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-noyabrdagi PF-6079-sonli Farmoni [9] bilan tasdiqlangan ushbu Strategiya mamlakatni raqamlashtirishning uzoq muddatli maqsadlarini, shu jumladan kiberxavfsizlikni ta‘minlashning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berdi.

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi 80-sonli Qarori [10] bilan “Alohida faoliyat turlarini litsenziyalash bo‘yicha yagona nizom” tasdiqlangan. Bu Nizom kiberxavfsizlik bilan bog‘liq ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash orqali sifat va xavfsizlikni nazorat qilishga xizmat qiladi.

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 22-fevraldagi 86-sonli Qarori [11] bilan “Alohida ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni berish tartib-taomillari” tasdiqlangan bo‘lib, bu hujjatlar ham kiberxavfsizlik faoliyatining ayrim jihatlarini tartibga solishda muhimdir.

2022-yil 15-aprelda qabul qilingan “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni [12] sohaning mustahkam huquqiy asosini yaratdi. Bu Qonun Kiberhuquqda axborot xavfsizligini ta‘minlashning asosiy prinsiplari, subyektlari va ularning vakolatlarini, shuningdek, kiberhujumlarning oldini olish va ularga qarshi kurashish mexanizmlarini qamrab oladi.

Ushbu normativ-huquqiy hujjatlar majmuasi O‘zbekistonda kiberxavfsizlikni milliy darajada samarali ta‘minlash, raqamli infratuzilmalarni himoya qilish va fuqarolarning axborot huquqlarini kafolatlash uchun mustahkam asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Shuningdek, 2024-yilda Raqamli texnologiyalar vazirligi kiberxavfsizlik sohasida mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo‘yicha o‘quv dasturini ishga tushirdi. Dastur kiberxavfsizlik bo‘yicha mutaxassislarning malakasini oshirish, shuningdek, kiberhuquq sohasida yangi mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan.

TADQIQOT NATIJALARI


So‘nggi besh yillik tahlillarga ko‘ra, O‘zbekistonda kiberjinoyatlar soni 68 baravarga ko‘payganligi qayd etildi. [13]

Tahlillarga ko‘ra, kiberjinoyatlarning eng keng tarqalgan va xavfli yo‘nalishlari shaxsiy ma‘lumotlar, hisob ma‘lumotlari va bank kartalari bilan bog‘liq o‘g‘rilik va firibgarlik holatlari bo‘lib, bu turdagi jinoyatlar soni keskin oshmoqda. (1-rasm)

Tadqiqot natijalari kiberjinoyatchilikning keskin o‘sganini ko‘rsatadi: 2024-yilda jinoyatlar

soni 2023-yilga nisbatan 9,1 baravarga ko‘paygan. Shu bilan birga, ushbu davrda kibermakondagi huquqbuzarliklar yuzasidan jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan murojaatlar soni 34 baravarga ko‘paygan.

Kiberjinoyatchilarning eng keng va ko‘p qo‘llaniladigan turlari



1-rasm. Kiberjinoyatlarning eng ko‘p qo‘llaniladigan turlarining ko‘rsatkichlari (foizda)

Kiberjinoyatlar natijasida O‘zbekiston iqtisodiyotiga yetkazilayotgan moddiy zarar yil sayin keskin oshmoqda. 2021–2024-yillar oralig‘ida fuqarolarning 1 trillion 909 milliard so‘mdan ortiq mablag‘i noqonuniy o‘zlashtirilgan. Faqatgina 2024-yilning o‘zida yetkazilgan zarar 603 milliard so‘mni tashkil etgan.

Kiberjinoyatlarning miqyosi ham jiddiy o‘zgarishlarga uchragan:


2019-yilda axborot texnologiyalari orqali 18 turdagi 863 ta jinoyat sodir etilgan bo‘lsa, 2024-yilda bu ko‘rsatkich 62 turdagi 58 ming 800 ta jinoyatni tashkil etgan. [14]

Bu o‘rish umumiy jinoyatchilik ulushida yaqqol ko‘rinadi: 2023-yilda 6,2 foizni tashkil etgan kibermakondagi jinoyatlar ulushi 2024-yilda 44,4 foizga yetgan, ya‘ni deyarli har ikkinchi jinoyat axborot texnologiyalari orqali sodir etilgan.

Shuningdek, kibermakondagi jinoyatlar asosiy qismini bank kartalari bilan bog‘liq jinoyatlar (kibero‘g‘rilik va kibermakondagi jinoyatlar) tashkil etmoqda.

Kiberjinoyatlar asosan quyidagi usullarda (2-rasm) kuzatilmoqda:

Kiberjinoyatlar sodir qilinayotgan usullar



2-rasm. Kiberjinoyatlar sodir qilinayotgan usullarning ko'rsatkichlari (foizda), 2025-yil

Bu natijalar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida kafolatlangan shaxsiy hayot daxlsizligi va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish huquqlari kiberfazoda katta xavf ostida qolmoqda, bu esa huquqiy va institutsional mexanizmlarni takomillashtirishni talab etadi.

KIBERMAKONDAGI HUQUQBUZARLIKLAR UCHUN JAVOBGARLIK

Kibermakondagi munosabatlarning xavfsizligi, milliy qonunchilik, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining amaldagi Jinoyat va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchiligi bilan ta'minlanadi. Ushbu qonunlarda axborot texnologiyalari sohasida sodir etilgan huquqbuzarliklar uchun javobgarlik va aniq jazolarni nazarda tutuvchi alohida moddalar keltirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksidagi (MJtK) axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasiga oid munosabatlarga tahdid soluvchi huquqbuzarliklarning aksariyati quyidagilar bilan bog'liq: axborot tarmog'idan noqonuniy foydalanish, foydalanish qoidalari va standartlarini buzish, shuningdek, taqiqlangan axborotlarni tarqatish.

Xususan, MJtKda axborot xavfsizligiga qarshi quyidagi ma'muriy huquqbuzarliklar nazarda

tutilgan:

Axborotdan foydalanish qoidalarini buzish (155-modda);

Kompyuter tizimidan foydalanish qoidalarini buzish (155¹-modda);

Ommaviy axborot vositalari mahsulotlarini qonunga xilof ravishda tayyorlash va tarqatish (218-modda). [15]

Binobarin, axborot-kommunikatsiya makonida sodir etiladigan ma'muriy huquqbuzarliklar qatoriga, ommaviy axborot vositalarida, telekommunikatsiya tarmoqlarida yoki Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanilgan holda sodir etilgan qilmishlar ham kiradi. Ularga jumladan, MJtKning 189, 189¹, 191-moddalarida ko'zda tutilgan huquqbuzarliklarni keltirish mumkin.

MJtKning 189, 189¹ va 191-moddalarida ko'zda tutilgan huquqbuzarliklar, asosan, pornografiya, qimor, zo'ravonlik g'oyalari, giyohvandlik vositalarini yoki psixotrop moddalarni targ'ib qilish kabi taqiqlangan kontentni tarqatish bilan bog'liqdir. Ushbu qilmishlar fuqarolarning, shu jumladan voyaga yetmagan shaxslarning, hayoti va sog'lig'iga tahdid soluvchi g'ayrihuquqiy harakatlar orqali sodir etiladi. Shuningdek, Internet jahon axborot tarmog'ida noqonuniy kontentni tarqatish uchun MJtKning 276-moddasiga muvofiq javobgarlik belgilangan.

Axborot xavfsizligiga qarshi ma'muriy huquqbuzarliklar uchun qonunchilikda bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki o'n besh sutkagacha ma'muriy qamoqqa olish kabi og'ir jazo choralari nazarda tutilgan.

Kibermakonda sodir etiladigan huquqbuzarliklar orasida axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar eng xavfli hisoblanadi. Shu sababli, kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini oshirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi (JK) XX¹ bob bilan to'ldirildi. Ushbu yangi bob "Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar" deb nomlanib, 278¹-moddadan 278⁷-moddagacha bo'lgan moddalarni qamrab oladi. [16]

JK 278¹-modda. Axborotlashtirish qoidalarini buzish

JK 278²-modda. Kompyuter axborotidan qonunga xilof ya'ni ruxsatsiz foydalanish

JK 278³-modda. Kompyuter tizimidan, shuningdek telekommunikatsiya tarmoqlaridan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish uchun maxsus vositalarni o'tkazish maqsadini ko'zlab tayyorlash yohud o'tkazish va tarqatish

JK 278⁴-modda. Kompyuter axborotni modifikasiyalashtirish

JK 278⁶-modda. Zarar keltiruvchi dasturlarni yaratish, ishlatish yoki tarqatish.

Mazkur jinoyatlar axborot texnologiyalaridan qonuniy, xavfsiz foydalanishni ta'minlovchi munosabatlarga tajovuz qilinadi. Jinoiy-huquqiy tushunishda kompyuter axboroti axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarning predmeti hisoblanadi. Bunday predmetlar Jinoyat kodeksi 278¹, 278², 278⁴ va 278⁶-moddalarining dispozitsiyalarida to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilgan (masalan, axborot tizimi, axborot-hisoblash tizimlari, kompyuter axboroti, kompyuter dasturlari). Yuqoridagi jinoyatlarning xavfliligi ularning sodir etilishi natijasida axborot munosabatlariga jiddiy moddiy va ma'naviy zarar yetkazishi bilan belgilanadi.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalarining umumiy tahlili (kiberjinoyatchilikning 68 baravar o'sishi, jinoyatlarning ko'pchiligi (60%) moliyaviy firibgarlikdan iboratligi va Konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarning mavjudligi) shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda kiberxavfsizlik tizimi institutsional va qonunchilik darajasida shakllangan bo'lsa-da, raqamli tahdidlar dinamikasiga tez moslasha olmayapti.

Tadqiqot kiberxavfsizlikni ta'minlash uchun Konstitutsiyaviy asoslar (31 va 33-moddalar orqali shaxsiy hayot daxlsizligi va yozishmalar, telefon va telekommunikatsiya xabarlarining sir tutilishi, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish) mavjudligini tasdiqladi. Biroq, kibermakondagi tez o'zgaruvchan tahdidlarga javob berish uchun konstitutsiyaviy normalar to'g'ridan-to'g'ri amal qiluvchi mexanizmlar orqali mustahkamlanishi zarur.

Shuningdek, kiberjinoyatlarning 60 foizini bank kartalari bilan bog'liq firibgarlik (kiberfrod) tashkil etishi shuni anglatadiki, amaldagi MJtK moddalari, asosan, axborot tarmoqlaridan noto'g'ri foydalanish va taqiqlangan kontentga qaratilgan. Jinoyatlar soni 68 baravarga, moddiy zarar esa trillion so'mlarga yetgan bir paytda, amaldagi qonunchilik moddiy ziyon keltiruvchi eng katta xavfga nisbatan yetarlicha qaratilmagan yoki ularning qo'llanilish mexanizmlari samarasizdir.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, O'zbekistonda kiberhuquq sohasining huquqiy va institutsional asosi yaratilgan, ammo kiberjinoyatlarning misli ko'rilmagan o'sish sur'ati, ayniqsa moliyaviy firibgarliklar ko'payishi, mavjud mexanizmlarni tezkorlik bilan qayta ko'rib chiqish, profilaktika choralarini kuchaytirish hamda Konstitutsiyada kafolatlangan fuqarolarning axborot huquqlarini kiberfazoda amaliy himoya qilishni ta'minlashni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Kiber huquq – huquq sohasi sifatida: risola / tuzuvchilar R.R.Shakurov, M.M.Vohidov. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish markazi, 2022. – 27 b.
2. Information Technology Security Evaluation Criteria (ITSEC), Provisional Harmonized Criteria (1991) Luxembourg: Office for Official Publications of the European Communities, 1991 ISBN 92-826-3004
3. National Information Systems Security (InfoSec) Glossary (2000) National Security Telecommunications and Information Systems Security Committee. National Security Agency US.
4. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – 07.02.2017. – 4947-son
5. S.K.Ganiyev, A.A.Ganiyev, Z.T.Xudoyqulov. Kiberxavfsizlik asoslari: o‘quv qo‘llanma. – T.: «Aloqachi», 2020, 303 bet
6. Kibermaqonda sodir etilayotgan jinoyatlarga qarshi kurash: muammolar va yechimlar: Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami (2022 yil 24 fevral) / Mas’ul muharrir: A. A. Iminov. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2022. – 253 b.
7. “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarining joriy etilishini nazorat qilish, ularni himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori// Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – 21.11.2018. – 4024-son
8. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – 01.05.2023.
9. “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – 05.10.2020. – 6079-son
10. Maxsus elektron tizim orqali ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash tartibi to‘g‘risidagi yagona nizomni tasdiqlash haqida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi 21.02.2022. – 80-son
11. “Maxsus elektron tizim orqali ruxsat etish xususiyatiga ega ayrim hujjatlarni berish tartib-taomillari to‘g‘risidagi yagona nizomni tasdiqlash haqida // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi 22.02.2022. – 86-son
12. “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. 15.04.2022 –764-son
13. O‘zbekistonda kiberjinoyatlar keskin oshdi: Raqamlar va tahlillar. // Gazeta.uz.
<https://www.gazeta.uz/oz/2025/05/29/kiberjinoyat/>
14. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi. (05.07.2025). Kiberxavfsizlikni ta’minlash choralari va natijalari. O‘zbekiston Respublikasi Hukumati Portali. <https://gov.uz/oz/iiv/news/view/52319>
15. O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. 01.04.1995
16. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. 22.09.1994

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KIBERXAVFSIZLIK MUAMMOLARI: ZAMONAVIY XAVFLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH YONDASHUVLARI

Sattarov Ulug'bek Umed o'g'li

“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti, “Iqtisodiyot” fakulteti “Buxgalteriya hisobi” ta’lim yo’nalishi 2-kurs talabasi

MAQOLA MA'LUMOTI

Kalit so'zlar:

raqamli iqtisodiyot,
kiberxavfsizlik,
kiberxavflar,
ma'lumotlarni himoya qilish,
raqamli transformatsiya,
axborot tizimlari,
raqamli infratuzilma,
sun'iy intellekt, blokcheyn,
iqtisodiy xavfsizlik.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyotda kiberxavfsizlikni ta'minlashning nazariy asoslari va amaliy muammolari tahlil qilinadi. Raqamli transformatsiya (sun'iy intellekt, blokcheyn, bulutli texnologiyalar) iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish bilan bir qatorda, murakkab kiberxavflar, ma'lumotlar sizib chiqishi va to'lov dasturlari (ransomware) bilan bog'liq tahdidlarni ham yuzaga keltirmoqda. Tadqiqot xalqaro boshqaruv va normativ-huquqiy bazalarni o'rganib, infratuzilmasi hamda tajribasi cheklangan rivojlanayotgan davlatlarning zaif jihatlarini ochib beradi. Yakuniy xulosalar kiberxavfsizlikni mustahkamlash barqaror iqtisodiy o'sish va uzoq muddatli barqarorlikning fundamental sharti ekanligini ko'rsatadi.

CYBERSECURITY CHALLENGES IN THE DIGITAL ECONOMY: MODERN RISKS AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT APPROACHES

ARTICLE INFO

Keywords:

digital economy,
cybersecurity,
cyber threats, data protection,
digital transformation,
information systems, digital
infrastructure, artificial
intelligence, blockchain,
economic security

ABSTRACT

This article analyzes the theoretical foundations and practical challenges of cybersecurity in the digital economy. While digital transformation (AI, blockchain, cloud computing) drives economic growth, it simultaneously escalates exposure to complex cyber threats, data breaches, and ransomware. Examining international governance and regulatory frameworks, the study highlights the vulnerabilities of developing economies due to limited infrastructure and expertise. The findings conclude that strengthening cybersecurity is a fundamental requirement for sustainable economic growth and long-term resilience

ПРОБЛЕМЫ КИБЕРБЕЗОПАСНОСТИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ: СОВРЕМЕННЫЕ РИСКИ И ПОДХОДЫ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ

ИНФОРМАЦИЯ СТАТЬИ

Ключевые слова:

цифровая экономика,
кибербезопасность,
киберугрозы,
защита данных,
цифровая трансформация,
информационные системы,
цифровая инфраструктура,
искусственный интеллект,
блокчейн, экономическая
безопасность.

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются теоретические основы и практические проблемы обеспечения кибербезопасности в цифровой экономике. В то время как цифровая трансформация (искусственный интеллект, блокчейн, облачные вычисления) стимулирует экономический рост, она одновременно увеличивает уязвимость перед комплексными киберугрозами, утечками данных и программами-вымогателями. Исследуя международные подходы к управлению и нормативно-правовую базу, авторы выделяют уязвимости развивающихся стран, обусловленные ограниченной инфраструктурой и нехваткой опыта. Результаты исследования подтверждают, что укрепление систем кибербезопасности является фундаментальным условием для устойчивого экономического роста и долгосрочной стабильности.

INTRODUCTION

The development of the digital economy represents one of the most significant transformations in modern global economic systems. Over the past two decades, traditional economic structures have gradually shifted toward digital platforms where goods, services, and financial transactions are conducted electronically. This transformation has been driven by rapid technological advancements in information and communication technologies, including internet expansion, mobile technologies, cloud computing, and artificial intelligence systems [1].

The digital economy has significantly improved productivity, reduced transaction costs, and increased access to global markets. Businesses are now able to operate across borders with minimal physical infrastructure, while consumers benefit from faster and more efficient services. Governments have also adopted digital technologies to improve public service delivery through e-government systems and digital identification platforms.

However, alongside these advantages, the digital transformation process has introduced new risks that were not present in traditional economic systems. The increasing reliance on interconnected digital networks has created new vulnerabilities that can be exploited by cybercriminals. As a result, cybersecurity has become a fundamental requirement for ensuring the stability and sustainability of modern economies.

Cybersecurity refers to the protection of computer systems, networks, programs, and data from unauthorized access, attacks, damage, or disruption. It is no longer limited to technical protection but has evolved into a strategic component of national economic security and global stability [2].

In recent years, cyberattacks have become more sophisticated, organized, and financially motivated. Criminal groups and even state-sponsored actors are increasingly targeting critical infrastructure, financial systems, healthcare institutions, and government databases. These attacks can lead to severe financial losses, disruption of essential services, and loss of public trust in digital systems.

The importance of cybersecurity is particularly high in the context of the digital economy, where data is considered one of the most valuable economic assets. The loss or manipulation of data can have significant consequences for businesses and governments, affecting decision-making processes, operational efficiency, and strategic planning.

In developing countries, including Uzbekistan, the digital transformation process is progressing rapidly. The introduction of e-government services, digital banking systems, and electronic payment platforms has significantly improved economic efficiency and accessibility. However, the rapid expansion of digital infrastructure without sufficient cybersecurity readiness increases exposure to cyber threats [3].

Therefore, analyzing cybersecurity challenges in the digital economy is essential for developing effective protection strategies and ensuring sustainable economic development.

METHODOLOGY

The research methodology of this study is based on a systematic and comparative approach aimed at analyzing cybersecurity challenges within the digital economy framework. The study combines qualitative analysis, comparative international review, and interpretation of statistical data from global cybersecurity reports.

Firstly, the theoretical foundation of the digital economy and cybersecurity was examined through academic literature, policy documents, and international reports published by organizations such as the World Bank, International Telecommunication Union (ITU), and the Organization for Economic Cooperation and Development (OECD) [4]. These sources provided a comprehensive understanding of global cybersecurity trends and digital transformation dynamics.

Secondly, a comparative analysis was conducted between developed and developing countries to evaluate differences in cybersecurity maturity levels. Countries such as the United States, Germany, South Korea, Japan, and Singapore were used as benchmarks for advanced cybersecurity systems. Their approaches were compared with those of emerging economies to identify structural weaknesses and institutional gaps.

Thirdly, national strategies and regulatory frameworks were analyzed, with particular focus on digital transformation policies and cybersecurity development programs. This included examining legal frameworks, institutional responsibilities, and national cybersecurity strategies.

The study also utilized key analytical indicators, including the frequency of cyber incidents, financial losses caused by cybercrime, investment levels in cybersecurity infrastructure, and human capital development in the cybersecurity sector. These indicators were used to evaluate the effectiveness of cybersecurity systems in different economic environments.

ANALYSIS AND RESULTS

The digital economy is fundamentally based on the integration of digital technologies into all aspects of economic activity. While this integration provides significant benefits in terms of efficiency, innovation, and accessibility, it also creates new security vulnerabilities.

One of the most significant challenges in the digital economy is the increasing number of cyberattacks targeting both public and private sector organizations. Cybercriminals use a wide range of techniques, including malware, phishing, ransomware, spyware, and distributed denial-of-service (DDoS) attacks, to compromise digital systems.

Financial institutions are among the most frequently targeted sectors due to the high value of financial data and transactions. Online banking systems, digital wallets, and electronic payment platforms are particularly vulnerable to cyber fraud and data breaches. According to international cybersecurity reports, the financial sector experiences billions of dollars in losses annually due to cybercrime [5].

Another critical issue is data security. In the digital economy, data has become a central economic resource. Businesses rely on data analytics to make strategic decisions, optimize operations, and understand consumer behavior. However, unauthorized access to sensitive data can lead to severe consequences, including financial loss, reputational damage, and legal penalties.

Cloud computing technologies have further increased the complexity of cybersecurity. While cloud systems provide scalability and cost efficiency, they also introduce risks related to data storage, access control, and third-party service providers. Ensuring the security of cloud-based systems requires advanced encryption methods and strict access management policies.

Artificial intelligence (AI) has also transformed the cybersecurity landscape. AI-based systems are increasingly used to detect anomalies, identify threats, and respond to cyberattacks in real time. However, cybercriminals are also using AI technologies to develop more sophisticated attack methods, creating an ongoing technological competition between attackers and defenders.

Another important dimension of cybersecurity in the digital economy is the increasing interconnection of critical infrastructure systems. Energy networks, transportation systems, healthcare services, and communication infrastructures are now heavily dependent on digital technologies. While this integration improves efficiency and service delivery, it also creates systemic risks where a single cyberattack can disrupt entire economic and social systems [6]. For example, attacks on energy grids or transportation control systems can lead to large-scale disruptions affecting not only individual organizations but also national economic stability. This phenomenon demonstrates that cybersecurity is no longer limited to protecting individual users or companies; it has become a matter of national security and economic resilience.

Ransomware attacks have become one of the most damaging forms of cybercrime in recent years. In such attacks, malicious software encrypts an organization's data and demands payment for its release. These attacks have targeted hospitals, financial institutions, universities, and government agencies, causing significant operational disruptions. The economic impact of ransomware is increasing annually, with global losses reaching billions of dollars [7].

Phishing attacks also remain a major threat in the digital economy. Cybercriminals use deceptive emails, messages, or websites to trick users into revealing sensitive information such as passwords, bank details, and personal identification data. Despite technological advancements, human error remains one of the weakest links in cybersecurity systems.

Social engineering attacks exploit psychological manipulation rather than technical vulnerabilities. These attacks highlight the importance of human factors in cybersecurity. Even the most advanced technological systems can be compromised if users lack awareness or training in identifying cyber threats.

Another important challenge is the shortage of cybersecurity professionals. The rapid growth of digital technologies has created a high demand for skilled experts in information security, ethical hacking, and network protection. However, many countries face a significant gap between demand and supply of qualified cybersecurity specialists. This shortage weakens the overall resilience of digital systems [8].

Investment in cybersecurity infrastructure is also uneven across countries. Developed economies allocate significant resources to cybersecurity research, advanced monitoring systems, and threat intelligence platforms. In contrast, developing countries often struggle with limited budgets, outdated systems, and insufficient institutional capacity.

DISCUSSION

The findings of this study indicate that cybersecurity is a fundamental pillar of the digital economy. Without effective cybersecurity systems, digital transformation efforts may lead to increased vulnerability rather than sustainable economic growth.

One of the key issues identified is the rapid evolution of cyber threats. Cybercriminals continuously develop new methods to bypass security systems, making it difficult for organizations to maintain long-term protection. This requires constant updates to cybersecurity technologies and policies.

Another major issue is the imbalance between technological development and regulatory frameworks. In many cases, digital technologies evolve faster than legal and institutional systems. As a result, governments struggle to regulate emerging cyber risks effectively. This regulatory gap creates opportunities for cybercriminal activities.

International cooperation plays a crucial role in addressing cybersecurity challenges. Since cyber threats often cross national borders, no single country can effectively combat cybercrime alone. Global collaboration in intelligence sharing, legal enforcement, and technological development is essential for building a secure digital environment [9].

Public awareness is also a critical factor. Many cyber incidents occur due to lack of knowledge among users regarding safe digital practices. Therefore, improving digital literacy and cybersecurity awareness among the population is essential for reducing risks associated with human error.

In the context of developing countries, including Uzbekistan, strengthening cybersecurity requires a multi-dimensional approach. This includes investment in modern digital infrastructure, development of specialized education programs, establishment of cybersecurity institutions, and improvement of legal frameworks.

Furthermore, cooperation between public and private sectors is essential. Private companies often possess advanced technological capabilities and expertise, while governments provide regulatory support and national coordination. A strong partnership between these sectors can significantly improve cybersecurity resilience.

CONCLUSION

This study demonstrates that cybersecurity is an essential requirement for the sustainable development of the digital economy. As economic systems become increasingly digitalized, the importance of protecting information systems, digital assets, and communication networks continues to grow.

Cybersecurity challenges are complex and multidimensional, involving technological, organizational, economic, and human factors. Addressing these challenges requires a comprehensive strategy that includes technological innovation, regulatory development, human capital investment, and international cooperation.

The digital economy offers significant opportunities for economic growth, innovation, and efficiency. However, without strong cybersecurity systems, these benefits may be undermined by increasing cyber threats and vulnerabilities.

Therefore, strengthening cybersecurity infrastructure, improving digital literacy, and developing skilled professionals are essential steps toward ensuring long-term economic stability and sustainable development in the digital era.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi. “Raqamli O‘zbekiston – 2030 strategiyasi”. <https://mitc.uz/>
2. O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. “Elektron hukumat to‘g‘risidagi normativ-huquqiy hujjatlar”. <https://lex.uz/>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. PQ-4699-son qaror: Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni rivojlantirish chora-tadbirlari (2020). <https://lex.uz/docs/4751561>
4. O‘zbekiston Respublikasi “Axborotlashtirish to‘g‘risida” Qonuni. <https://lex.uz/docs/2613718>
5. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Raqamli iqtisodiyot ko‘rsatkichlari bo‘yicha statistik ma’lumotlar (2025). <https://stat.uz/>
6. Elektron hukumat loyihalarini boshqarish markazi. <https://egov.uz/>
7. World Bank. Uzbekistan Digital Development Overview (2023). <https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan>
Raqamli texnologiyalar, internet va ijtimoiy tarmoqlar tobora o‘sib borayotganligi sababli, intellektual mulkni himoya qilish yanada muhim va murakkab huquqiy masala bo‘lib bormoqda. Hozirgi kunda elektron kitoblar, videolar, ilmiy maqolalar va dasturiy mahsulotlar bir necha soniya ichida millionlab insonlarga yetib borishi mumkin. Bunday qulayliklar mavjud bo‘lsada, noqonuniy nusxa ko‘chirish, ruxsatsiz tarqatish, muallif nomini yashirish va asarlarni o‘zgartirib e‘lon qilish holatlari ham ko‘paymoqda.

Raqamli muhitda mualliflik huquqining buzilishi an’anaviy muhitdagi huquqbuzarliklarga nisbatan ancha murakkab. Ushbu maqolada intellektual mulk huquqlarining asosiy tushunchalari, ularning raqamli muhitda himoya qilish usullari, mavjud muammolar va yechimlar ko‘rib chiqiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda intellektual mulk huquqi va u bilan bog‘liq bo‘lgan huquqlarni raqamli dunyoda muhofaza qilish bilan bog‘liq nazariy masalalarni shakllantirib berishda ilmiy bilishning qiyosiy-huquqiy, tizimli, mantiqiy hamda tahlil va sintez usullaridan foydalanildi. Shuningdek, ushbu tadqiqot jarayonida O‘zbekiston Respublikasining intellektual mulk sohasiga bog‘liq amaldagi qonunchiligi, asosan, “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar

to'g'risida"gi Qonun, Fuqarolik kodeksi normalari hamda ushbu sohaga bog'liq ilmiy adabiyotlar hamda xalqaro tajribalar o'rganildi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar, video joylash platformalari, sun'iy intellekt tizimlari va blockchain texnologiyalari bilan bog'liq holatlar tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli dunyodagi asosiy tahdidlar:

Raqamli texnologiyalar mualliflik huquqi egalariga yangi imkoniyatlar yaratgan bo'lsada, bir qator xavflarni ham yuzaga keltiradi.

Birinchi tahdid — kontentning noqonuniy nusxalanishi. Misol uchun, elektron kitoblar yoki ilmiy maqolalar muallifning ruxsatisiz Telegram kanallari yoki har-xil fayl uzatish platformalarida tarqatib yuborish mumkin.

Ikkinchi tahdid — ijtimoiy tarmoqlarda kontentni qayta joylashtirish. Instagram, TikTok yoki YouTube platformalarida muallifga tegishli materiallar uning manbasi ko'rsatilmagan holda qayta e'lon qilinishi ko'p bo'ladi.

Uchinchi tahdid — sun'iy intellekt tizimlari tomonidan yaratilayotgan kontent bilan bog'liq masalalardir. AI modellari millionlab asarlar asosida o'qitiladi. Natijada muallifning rozilgisiz uning ijod mahsulotidan foydalanilgan bo'lishi mumkin.

To'rtinchi tahdid — NFT va blockchain texnologiyalaridan noqonuniy foydalanishdir. Ayrim hollarda boshqa shaxsga tegishli raqamli san'at asari NFT ko'rinishida token ko'rinishida chiqarilib sotilishi kuzatilmoqda.

Beshinchi tahdid — onlayn ta'lim platformalarida mualliflik huquqi bilan himoyalangan materiallardan ruxsatsiz foydalanishdir.

O'zbekiston qonunchiligida raqamli muhofaza mexanizmlari

O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonuni raqamli dunyoda ko'plab munosabatlarga nisbatan tatbiq etilishi mumkin.

2-modda. Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risidagi qonunchilik — normada xalqaro shartnomalar ustuvorligini belgilangan. Bu norma internet makonida transchegaraviy huquqbuzarliklarni hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Agar mualliflik huquqi bilan bog'liq nizoda xalqaro shartnoma qoidalari qo'llanilishi talab etilsa, aynan ushbu modda asos bo'lib xizmat qiladi.

5-modda. Mualliflik huquqi obyekti — raqamli formatdagi videolar, podkastlar, elektron kitoblar va grafik dizaynlar ham ushbu modda doirasida himoya qilinadi.

10-modda. Mualliflik prezumpsiyasi — mualliflik huquqi asar yaratilgan paytdan boshlab vujudga kelishini belgilaydi. Shuning uchun, internetga joylashtirilgan maqola yoki fotografiya uchun alohida ro'yxatdan o'tish talab etilmaydi. Bu raqamli ijodkorlar uchun muhim kafolat

hisoblanadi.

11-modda. Mualliflik huquqining muhofaza belgilari — raqamli platformalarda © belgisi, muallif nomi va yaratilgan yil ko‘rsatilishi mutlaq mualliflik huquqlari egasi ekanligini mustahkamlaydi.

18-modda. Muallifning shaxsiy nomulkiy huquqlari — masalan, blogger yoki ilmiy tadqiqotchi yaratgan material boshqa shaxs tomonidan o‘zgartirib e‘lon qilinsa, ushbu modda asosida huquqiy himoya talab qilinishi mumkin.

19-modda. Muallifning mulkiy huquqlar — ayniqsa, “asarni barchaning e‘tiboriga yetkazish huquqi”, “takrorlash huquqi”, “tarqatish huquqi” internet muhitida eng muhim himoya vositalaridan hisoblanadi. Muallif roziligisiz elektron nusxalarni tarqatish mazkur moddaning buzilishi sifatida baholanishi mumkin.

Asosiy tushunchalar:



1-rasm. Guvohnoma



2-rasm. Patent

Tovar belgilari va xizmat ko‘rsatish belgilari uchun guvohnoma — bu sizning brend nomingiz, logotipingiz yoki xizmatigingiz qonuniy ravishda davlat ro‘yxatidan o‘tganligini tasdiqlovchi rasmiy yuridik hujjatdir. Bu guvohnoma egasiga belgilangan belgidan mutlaq foydalanish va uni boshqalardan himoya qilish huquqini beradi.

Patent — texnik yechim yoki ixtironing davlat tomonidan e‘tirof etilganligini va ixtirochining o‘z ixtirosiga olgan mutlaq huquqini tasdiqlovchi hujjat.

“Patent” havolalar patentlar, mualliflik guvohnomalari, foydalilik to‘g‘risida guvohnomalar,

foydali modellar, qo‘shimcha patentlar yoki qo‘shimcha guvohnomalar, qo‘shimcha mualliflik guvohnomalari va foydalilik to‘g‘risida qo‘shimcha guvohnomalar sifatida tushunilishi kerak (PCT).

Intellectual mulk huquqi — intellektual (aqliy) faoliyat natijasiga tegishli huquq. Intellektual faoliyat natijasiga yoki xususiy alomatlarni aks ettiruvchi vositaga nisbatan mulkiy huquqlar egasiga ana shu intellektual mulk obyektidan o‘z xohishiga ko‘ra har qanday shaklda va har qanday usulda mutlaq qonuniy foydalanish huquqi tegishli bo‘ladi. Huquq egasiga mutlaq huquq asosida tegishli bo‘lgan intellektual mulk obyektlaridan boshqa shaxslarning foydalanishiga faqat huquq egasining ruxsati bilan yo‘l qo‘yiladi (O‘zbekiston Respublikasi FK, 1034-modda).

Muallif — ijodiy mehnati bilan asar yaratgan jismoniy shaxs.

Huquq egasi — mualliflik huquqiga nisbatan muallif yoki uning merosxo‘rlari, turdosh huquqlarga nisbatan ijrochi yoki uning merosxo‘rlari, fonogrammani tayyorlovchi, efir yoki kabel orqali ko‘rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilot, shuningdek shartnomaga asosan asarlardan yoxud turdosh huquqlar obyektlaridan foydalanish huquqini olgan boshqa yuridik yoki jismoniy shaxslar.

MUHOKAMA

O‘zbekiston Respublikasi Jahon intellektual mulk tashkilotiga (BIMT) 1991-yilda a‘zo bo‘ldi. Shuningdek, "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida"gi qonun raqamli muhitdagi ko‘plab munosabatlarni tartibga solishda zamin yaratmoqda. Qonunda muallifning shaxsiy va mulkiy huquqlari, mualliflik obyekti va muhofaza belgilari kabi institutlar internetda ham qo‘llanilishi mumkin. Biroq sun‘iy intellekt, NFT va blockchain kabi texnologiyalar yangi huquqiy munosabatlar keltirib chiqargani sababli qo‘shimcha normalar zarur.

Bundan tashqari, mualliflik huquqlarini himoya qilish faqat qonunchilik bilan cheklanmasligi kerak. Aholining, xususan yoshlar va kontent yaratuvchilarning huquqiy madaniyatini oshirish — asosan profilaktik chora — muhim ahamiyatga ega. Ta’lim, ommaviy axborot vositalari va platformalar orqali intellektual mulkka hurmat madaniyatini rivojlantirish orqali huquqbuzarliklarni kamaytirish mumkin. Bu kabi yo‘nalishlarda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar mualliflar va boshqa huquq egalari manfaatlarini ishonchli himoya qilishga xizmat qiladi.

XULOSA

Raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlar tufayli endi intellektual mulkni osongina tarqatish mumkin, lekin bu mualliflik huquqining buzilishini ham oshirdi. O‘zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi Qonuni asosiy huquqiy bazani yaratdi, lekin sun‘iy intellekt, NFT va blockchain kabi yangi texnologiyalar mavjud

qonunchilikni qayta ko'rib chiqishni talab qilishi mumkin. Bunday muammolarni hal qilish bo'yicha asosiy tavsiyalar — Qonunchilikni takomillashtirish: Sun'iy intellekt, NFT va blockchain bilan bog'liq huquqiy bo'shliqlarni topish va ularni tartibga solish uchun qo'shimchalar kiritish yaxshi bo'lardi. Shuningdek, texnologik vositalarni joriy qilish: watermarking, DRM va blockchain asosidagi mualliflik huquqi isboti kabi texnologiyalarni kengroq ishlatish kontentning haqiqiyligini va mualliflik huquqini tasdiqlashga yordam beradi. Ta'lim va xabardorlikni oshirish: intellektual mulk bo'yicha o'quv modullarini ta'lim dasturlariga kiritish va ommaviy axborot vositalari orqali huquqiy madaniyatni rivojlantirish yaxshi bo'lardi. Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish: chegaralararo huquqbuzarliklarni kamaytirish maqsadida xalqaro ma'lumot almashinuvi va sud-huquqiy hamkorlikni rivojlantirish foydali.

Umuman olganda, qonunchilikni takomillashtirish, hozirgi texnologiyalarni ishlatish va jamoatchilikni xabardor qilish orqali raqamli dunyoda mualliflar manfaatlarini yanada samarali himoya qilish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 2023. <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, 1996. <https://lex.uz/mact/-111189>
3. Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonuni O'RQ-42, 2006. <https://lex.uz/ru/docs/-1022944>
4. Butunjahon intellektual mulk tashkilotini ta'sis etish Konvensiyasi, 1991. <https://lex.uz/docs/-2600169>
5. Patent kooperatsiyasi to'g'risidagi shartnoma (PCT), 1991. <https://lex.uz/docs/-2602762>
6. World Intellectual Property Organization. www.wipo.int
7. Electronic Frontier Foundation. <https://www EFF.org/>
8. Harvard Law Review <https://harvardlawreview.org/>
9. WIPO Copyright Treaty (WCT), 2019. <https://lex.uz/docs/4338207>

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KIBERJINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHISHNING KONSITUTSIYAVIY-HUQUQIY VA XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI

Rixsiyev Muhammadaziz Muzaffar o‘g‘li

*“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti “Ekologiya va
huquq” fakulteti Yurisprudensiya yo‘nalishi 3-kurs talabasi*

MAQOLA MA'LUMOTI

Kalit so‘zlar:

kiberjinoatchilik,
kiberxavfsizlik,
axborot xavfsizligi,
konstitutsiyaviy huquqlar,
shaxsga doir ma'lumotlar,
raqamli texnologiyalar,
xalqaro huquq,
Budapesht konvensiyasi,
axborot makoni,
kiberhujumlar,
milliy qonunchilik,
xalqaro hamkorlik.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida kiberjinoatchilikka qarshi kurashishning konstitutsiyaviy-huquqiy va xalqaro-huquqiy asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda kiberjinoatchilik tushunchasi, uning zamonaviy ko‘rinishlari hamda jamiyat va davlat xavfsizligiga ta’siri yoritilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, jinoyat va axborot qonunchiligida nazarda tutilgan kiberxavfsizlikni ta’minlash mexanizmlari o‘rganilgan. Maqolada xalqaro-huquqiy normalar, xususan kiberjinoatchilikka qarshi kurashishga qaratilgan xalqaro hujjatlar va xorijiy davlatlar tajribasi tahlil qilinib, milliy qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari kiberxavfsizlikni ta’minlash, fuqarolarning axborot sohasidagi konstitutsiyaviy huquqlarini himoya qilish hamda kiberjinoatchilikka qarshi kurashishning samarali huquqiy mexanizmlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

CONSTITUTIONAL-LEGAL AND INTERNATIONAL-LEGAL FOUNDATIONS FOR COMBATING CYBERCRIME IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

ARTICLE INFO

Keywords:

cybercrime, cybersecurity,
information security,
constitutional rights,
personal data,
digital technologies,
international law,
Budapest Convention,

ABSTRACT

This article analyzes the constitutional and international legal foundations of combating cybercrime in the Republic of Uzbekistan. The study examines the concept of cybercrime, its modern forms, and its impact on the security of society and the state. It also explores the mechanisms for ensuring cybersecurity established by the Constitution of the Republic of Uzbekistan, criminal legislation, and information-related laws. The article analyzes international legal norms, including international instruments aimed at combating cybercrime, as well as

information space,
cyberattacks,
national legislation,
international cooperation.

the experience of foreign countries in this field. Based on the analysis, scientific and practical recommendations for improving national legislation are proposed. The findings contribute to strengthening cybersecurity, protecting the constitutional rights of citizens in the information sphere, and developing effective legal mechanisms for combating cybercrime.

ПРОБЛЕМЫ КИБЕРБЕЗОПАСНОСТИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ: СОВРЕМЕННЫЕ РИСКИ И ПОДХОДЫ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ

ИНФОРМАЦИЯ СТАТЬИ

Ключевые слова:

киберпреступность,
кибербезопасность,
информационная
безопасность,
конституционные права,
персональные данные,
цифровые технологии,
международное право,
Будапештская конвенция,
информационное
пространство,
кибератаки,
национальное
законодательство,
международное
сотрудничество.

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются конституционно-правовые и международно-правовые основы противодействия киберпреступности в Республике Узбекистан. В исследовании раскрываются понятие киберпреступности, ее современные проявления, а также влияние на безопасность общества и государства. Кроме того, изучены механизмы обеспечения кибербезопасности, предусмотренные Конституцией Республики Узбекистан, уголовным законодательством и законодательством в сфере информации. В статье проанализированы международно-правовые нормы, включая международные документы, направленные на борьбу с киберпреступностью, а также опыт зарубежных государств. На основе проведенного анализа разработаны научно-практические предложения по совершенствованию национального законодательства. Результаты исследования направлены на укрепление кибербезопасности, защиту конституционных прав граждан в информационной сфере и развитие эффективных правовых механизмов противодействия киберпреступности.

KIRISH

XXI asrda raqamli texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya tizimlarining jadal rivojlanishi jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan o'zgartirmoqda. Davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, moliya, ta'lim, sog'liqni saqlash hamda boshqa muhim tarmoqlarning raqamlashtirilishi insoniyat taraqqiyotiga yangi imkoniyatlar yaratish bilan birga, kiberxavfsizlik bilan bog'liq yangi tahdidlarni ham yuzaga keltirmoqda. Xususan, kompyuter tizimlariga noqonuniy kirish,

ma'lumotlarni o'g'irlash, zararli dasturlar tarqatish, internet firibgarligi, shaxsga doir ma'lumotlardan noqonuniy foydalanish kabi kiberjinoyatlar davlatlar va jamiyatlar oldida turgan dolzarb muammolardan biriga aylanmoqda.

Kiberjinoyatchilikning o'ziga xos xususiyati uning transmilliy xarakterga egaligidadir. Kiberjinoyatlar davlat chegaralari bilan cheklanmaydi, ular bir vaqtning o'zida bir nechta mamlakatlarning axborot infratuzilmasiga zarar yetkazishi mumkin. Shu sababli mazkur turdagi huquqbuzarliklarga qarshi kurashishda nafaqat milliy qonunchilikni takomillashtirish, balki xalqaro hamkorlikni rivojlantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy sharoitda kiberjinoyatchilikka qarshi samarali kurashish davlatlarning o'zaro axborot almashinuvi, huquqiy yordam ko'rsatishi va xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish darajasiga bevosita bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasida ham raqamli iqtisodiyot va elektron davlat xizmatlarini rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Natijada axborot tizimlari va telekommunikatsiya tarmoqlarining ahamiyati ortib bormoqda. Biroq raqamlashtirish jarayonlarining jadallashuvi kiberxavfsizlikni ta'minlash va kiberjinoyatchilikka qarshi kurashishning huquqiy mexanizmlarini yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shu nuqtai nazardan, fuqarolarning axborot olish huquqi, shaxsiy hayot daxlsizligi, shaxsga doir ma'lumotlarning himoyasi hamda davlatning axborot xavfsizligini ta'minlash borasidagi majburiyatlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda kiberxavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo'lib, ular orasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Jinoyat kodeksi, "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi Qonun, "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonun hamda axborotlashtirish sohasidagi boshqa normativ-huquqiy hujjatlar muhim o'rin tutadi. Biroq kiberjinoyatchilikning yangi shakllari va usullarining paydo bo'layotgani ushbu sohadagi huquqiy tartibga solish mexanizmlarini doimiy ravishda takomillashtirib borishni talab etmoqda.

O'zbekiston Respublikasida kiberjinoyatchilikka qarshi kurashishning konstitutsiyaviy-huquqiy va xalqaro-huquqiy asoslarini tahlil qilish, amaldagi milliy qonunchilik va xalqaro standartlarning o'zaro uyg'unligini o'rganish hamda mavjud muammolarni aniqlash orqali ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqish bo'yicha tadqiqot olib borildi. Tadqiqot davomida qiyosiy-huquqiy, tizimli, formal-yuridik va tahliliy metodlardan foydalanildi.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda O'zbekiston Respublikasida kiberjinoyatchilikka qarshi kurashishning konstitutsiyaviy-huquqiy va xalqaro-huquqiy asoslarini o'rganishda umumilmiy va maxsus yuridik tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Xususan, formal-yuridik metod yordamida

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Jinoyat kodeksi, "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi Qonun hamda axborot xavfsizligi sohasidagi boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning mazmuni va huquqiy mohiyati tahlil qilindi.

Qiyosiy-huquqiy metod asosida O'zbekiston Respublikasining kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi qonunchiligi xalqaro-huquqiy standartlar hamda ayrim xorijiy davlatlar, jumladan AQSh, Germaniya va Singapur tajribasi bilan taqqoslandi. Tizimli-tahliliy metod orqali kiberjinoyatchilikka qarshi kurashishning konstitutsiyaviy, jinoyat-huquqiy va xalqaro-huquqiy mexanizmlari yagona tizim sifatida o'rganildi.

XXI asrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi jamiyatning barcha sohalarini raqamlashtirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, raqamli muhitdan noqonuniy maqsadlarda foydalanish holatlari ham ortib bormoqda. Natijada kiberjinoyatchilik zamonaviy dunyoning eng xavfli transmilliy tahdidlaridan biriga aylandi. Ilmiy adabiyotlarda kiberjinoyatchilik tushunchasiga turlicha yondashuvlar mavjud. Keng ma'noda kiberjinoyatchilik deganda kompyuter tizimlari, axborot tarmoqlari va elektron ma'lumotlardan foydalanish orqali sodir etiladigan yoki ularga qarshi qaratilgan barcha huquqbuzarliklar tushuniladi. Mazkur tushuncha kompyuter tizimlarining o'zi jinoyat obyekti bo'lgan holatlarni ham, kompyuter texnologiyalari jinoyat sodir etish vositasi sifatida foydalanilgan holatlarni ham qamrab oladi. Kiberjinoyatchilikning xalqaro-huquqiy asoslarini belgilovchi muhim hujjatlardan biri 2001-yilda qabul qilingan Budapesht konvensiyasi hisoblanadi. Mazkur Konvensiyada kompyuter tizimlariga noqonuniy kirish, ma'lumotlarni noqonuniy egallash, tizimlar faoliyatiga noqonuniy aralashish, kompyuter firibgarligi va boshqa qator qilmishlar kiberjinoyatlar sifatida e'tirof etilgan.

O'zbekiston Respublikasida ham kiberxavfsizlikni ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi Qonun axborot makonida xavfsizlikni ta'minlashning huquqiy asoslarini mustahkamlaydi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida kompyuter axborotidan noqonuniy foydalanish, axborot tizimlariga noqonuniy kirish va boshqa kiberjinoyatlar uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

Kiberjinoyatchilikning eng muhim jihatlaridan biri uning transmilliy xarakterga egaligidir. An'anaviy jinoyatlardan farqli ravishda kiberjinoyatlar muayyan hudud bilan chegaralanmaydi. Jinoyatchi bir davlat hududida bo'lib, boshqa davlat fuqarolari yoki tashkilotlariga qarshi hujum uyushtirishi mumkin. Transmilliylikning asosiy sababi internet tarmog'ining global xususiyatidir. Kiberjinoyatni sodir etishda foydalanilgan serverlar bir necha davlatlarda joylashgan bo'lishi, jinoyatchi boshqa davlatda faoliyat yuritishi, jabrlanuvchi esa uchinchi davlat hududida bo'lishi mumkin. Bu esa jinoyatni aniqlash, tergov qilish va aybdorlarni javobgarlikka tortish jarayonini murakkablashtiradi. Shu sababli xalqaro hamkorlik kiberjinoyatchilikka qarshi kurashning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi.

Davlatlar o'rtasida axborot almashinuvi, ekstraditsiya, o'zaro huquqiy yordam va qo'shma tergov mexanizmlarining samarali ishlashi kiberjinoyatlarga qarshi kurash samaradorligini oshiradi. Bu borada Interpol, Yevropol hamda Birlashgan Millatlar Tashkiloti muhim rol o'ynamoqda. Bundan tashqari, kiberjinoyatchilikning transmilliy tabiati davlat suvereniteti, yurisdiksiya va xalqaro javobgarlik masalalariga ham yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Shu bois ko'plab davlatlar milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish va xalqaro hamkorlik mexanizmlarini kuchaytirishga intilmoqda. Natijada kiberjinoyatchilik nafaqat alohida shaxslar yoki tashkilotlar, balki butun davlatlar xavfsizligiga tahdid soluvchi global muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu sababli unga qarshi kurashishda milliy huquqiy mexanizmlar bilan bir qatorda xalqaro-huquqiy hamkorlik ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Oxirgi statistik ma'lumotlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, fuqarolarni kartalaridan ommaviy ravishda pul yechib olinishlari va hakerlar tomonidan ijtimoiy tarmoq profillari vzlom qilinishi bilan bog'liq jinoyatlar O'zbekiston Respublikasi hududi emas balki boshqa davlatlardan turib amalga oshirilmoqda. Bu esa o'z navbatidan davlatning imperativ tusdagi qonunlariga roiya qilmaganlikni anglatib javobgarlikka asos bo'ladi va qator tashkilotlar tomonidan vaziyat atroflicha o'rganilib zarur himoya choralari qo'llanilishiga asos bo'ladi.

NATIJALAR

Kiberjinoyatchilikka qarshi kurashning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini tahlil qilishda, avvalo, axborot olish va undan foydalanish huquqining konstitutsiyaviy mazmunini yoritish zarur. Chunki raqamli jamiyat sharoitida insonning ko'plab huquq va erkinliklari aynan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali amalga oshiriladi. Shu bois kiberxavfsizlikni ta'minlash fuqarolarning axborot sohasidagi konstitutsiyaviy huquqlarini himoya qilish bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida avvalo inson manfaatlari ustuvor hisoblanib uning har bir moddasidan tortib boshqa qonunchiliklar ham inson va uning barcha huquqlari taminlashiga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 33-moddasiga muvofiq, har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega. Ushbu norma shaxsning axborot bilan erkin munosabatda bo'lishi, o'z fikrini shakllantirishi va uni erkin ifoda etishining konstitutsiyaviy asosini tashkil etadi. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi natijasida mazkur huquq internet tarmoqlari, ijtimoiy media platformalari, elektron ommaviy axborot vositalari va boshqa raqamli resurslar orqali amalga oshirilmoqda. Shuningdek har kim axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga egaligi mustahkamlangan. Mazkur norma demokratik jamiyatning asosiy tamoyillaridan biri bo'lib, fuqarolarning davlat va jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlaydi. Shu bilan birga, mazkur huquqdan foydalanish boshqa shaxslarning huquqlari, davlat xavfsizligi, jamoat tartibi hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarga zarar yetkazmasligi lozim. Kiberjinoyatlar, xususan, kompyuter tizimlariga noqonuniy kirish, axborot resurslarini bloklash, ma'lumotlarni yo'q qilish yoki o'zgartirish

kabi harakatlar fuqarolarning Konstitutsiyada kafolatlangan axborot olish huquqiga bevosita tajovuz qiladi. Shu sababli davlat tomonidan amalga oshiriladigan kiberxavfsizlik choralari nafaqat axborot tizimlarini, balki fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini ham himoya qilishga qaratilgan. Mazkur masala xalqaro huquqiy hujjatlarda ham o'z aksini topgan. Jumladan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 19-moddasi hamda Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 19-moddasi har bir insonning axborotni izlash, olish va tarqatish huquqini e'tirof etadi. O'zbekiston ushbu xalqaro standartlarni tan olgan holda ularni milliy qonunchilikka implementatsiya qilgan.

Shaxsiy hayot daxlsizligi va shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish davlatning asosiy konstitutsiyaviy majburiyati hisoblanadi. Davlat har bir fuqaroning shaxsiy ma'lumotlarini xavfsizligini taminlashi va tashqi xavf va bosimlardan himoya qilishi shart hisoblanadi. Afsuski hozirgi kunda ko'plab fuqarolarni shaxsga doir ma'lumotlari kiberhujumlar tomonidan buzilishi yohud tarqatib yuborilishi mamlakatimizda ko'p kuzatilmoqda. Ayniqsa fuqarolarning rasmlari va passport ma'lumotlaridan foydalanib kiber jinoyatchilar turli xil maqsadlarda foydalanishi hatto rasmlarni fotoshop orqali ming tusga kirgazib tarqarishlari insonning eng ulug' va muborak hisoblangan shani va qadr qimmatiga putur yetkazilish holatlari kuzatilmoqda.

Kiberjinoyatchilikning eng xavfli ko'rinishlaridan biri shaxsga doir ma'lumotlarga noqonuniy tajovuz qilish bilan bog'liqdir. Zamonaviy raqamli texnologiyalar sharoitida fuqarolarning shaxsiy ma'lumotlari elektron bazalarda saqlanadi va qayta ishlanadi. Bu esa mazkur ma'lumotlarning noqonuniy egallanishi, tarqatilishi yoki ulardan g'arazli maqsadlarda foydalanilishi xavfini kuchaytiradi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasiga ko'ra, har bir shaxsning shaxsiy hayoti daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy siri himoya qilinadi. Mazkur norma insonning shaxsiy hayotiga noqonuniy aralashuvdan himoyalani sh huquqining konstitutsiyaviy kafolati hisoblanadi. Bundan tashqari, Konstitutsiyada yozishmalar, telefon orqali so'zlashuvlar, pochta jo'natmalari, elektron xabarlar va boshqa muloqot vositalarining sir saqlanishi kafolatlangan. Ushbu norma zamonaviy axborot texnologiyalari rivojlangan sharoitda alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki bugungi kunda shaxsiy muloqotlarning katta qismi elektron pochta, messenjerlar va ijtimoiy tarmoqlar orqali amalga oshirilmoqda. Kiberjinoyatchilar tomonidan elektron pochta hisoblarini buzish, bank kartalari ma'lumotlarini o'g'irlash, shaxsiy fotosurat va hujjatlarni noqonuniy qo'lga kiritish yoki internet tarmoqlarida tarqatish Konstitutsiyaning 31 va boshqa moddalarida nazarda tutilgan huquqlarning buzilishiga olib keladi. Shu bois shaxsiy hayot daxlsizligini ta'minlash kiberxavfsizlik siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur huquqlar "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonun orqali yanada rivojlantirilgan. Ushbu qonun shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanishning huquqiy asoslarini belgilaydi hamda ma'lumotlar subyektlarining huquqlarini himoya qilishga

qaratilgan. Xalqaro huquq nuqtayi nazaridan ham shaxsiy hayot daxlsizligi fundamental inson huquqlaridan biri hisoblanadi. Xususan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 12-moddasi va Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 17-moddasi hech kimning shaxsiy va oilaviy hayotiga o'zboshimchalik bilan aralashishga yo'l qo'yilmasligini belgilaydi.

Kiberjinoyatchilikka qarshi kurash davlatning inson huquqlari va xavfsizlikni ta'minlash borasidagi konstitutsiyaviy vazifalaridan kelib chiqadi. Raqamli texnologiyalar jamiyat hayotining barcha sohalariga kirib borgan hozirgi davrda davlatning axborot makonini himoya qilish bo'yicha faoliyati alohida ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasida har kimning shaxsiy hayoti daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy siri himoya qilinishi, yozishmalar, telefon so'zlashuvlari, pochta, elektron va boshqa xabarlar sir saqlanishi kafolatlangan. Shuningdek, ushbu moddada shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish huquqi ham mustahkamlangan. Mazkur norma davlat zimmasiga fuqarolarning shaxsiy ma'lumotlarini noqonuniy foydalanish, tarqatish va kiberhujumlardan himoya qilish majburiyatini yuklaydi. Shuningdek, Konstitutsiyaning 33-moddasiga ko'ra, har kim axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega. Mazkur modda davlat tomonidan Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratib berilishini ham nazarda tutadi. Shu bois davlat axborot infratuzilmasining barqaror va xavfsiz faoliyatini ta'minlash, axborot resurslarini kiberxurujlardan himoya qilish hamda fuqarolarning axborotdan erkin foydalanish huquqini kafolatlash choralari ko'rishi lozim. Bundan tashqari, Konstitutsiyaning 34-moddasida davlat organlari va tashkilotlarining fuqarolarga ularning huquq va manfaatlariga daxldor bo'lgan hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishish imkoniyatini yaratishi belgilangan. Mazkur norma davlat axborot tizimlarining ishonchliligi va himoyalanganligini ta'minlash zaruratini yuzaga keltiradi. Konstitutsiyaning 81-moddasida ommaviy axborot vositalarining erkinligi, axborotni izlash, olish, undan foydalanish va tarqatish huquqlari kafolatlangan. Raqamli davrda ommaviy axborot vositalarining asosiy faoliyati internet va elektron platformalar orqali amalga oshirilayotganligi sababli davlat ushbu axborot resurslarining kiberxavfsizligini ta'minlash bo'yicha tegishli choralarni ko'rishi zarur. Davlatning mazkur konstitutsiyaviy majburiyatlari "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi Qonun, "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonun, "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonun hamda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarga oid normalarida yanada rivojlantirilgan. Shu bilan birga, davlatning kiberxavfsizlikni ta'minlash bo'yicha faoliyati inson huquqlarini cheklash vositasiga aylanmasligi kerak. Kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish choralari Konstitutsiyada belgilangan shaxsiy hayot daxlsizligi, axborot olish erkinligi va boshqa fundamental huquqlar bilan muvozanatda amalga oshirilishi lozim. Aynan ana shunday yondashuv demokratik huquqiy davlatning asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida kiberjinoyatchilikka qarshi kurashishning milliy huquqiy mexanizmlari jinoyat huquqi normalari, maxsus kiberxavfsizlik sohasidagi qonunchilik hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning institutsional faoliyati orqali amalga oshiriladi. Ushbu mexanizmlar raqamli muhitda axborot xavfsizligini ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish hamda davlatning axborot infratuzilmasini himoyalashga xizmat qiladi. Bugungi kunda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi jamiyat hayotini tubdan o'zgartirdi. Bank tizimlari, davlat xizmatlari, savdo platformalari va hatto shaxsiy muloqotlar ham raqamli muhitga ko'chdi. Biroq ushbu taraqqiyot bilan bir qatorda yangi xavf — kiberjinoyatchilik ham keskin ortib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining XX¹-bobi aynan shu munosabatlarni huquqiy tartibga solishga qaratilgan bo'lib, u axborot texnologiyalari sohasida sodir etiladigan jinoyatlar uchun javobgarlikning tizimli asosini yaratadi. Axborot tizimlarining xavfsizligini ta'minlash va qoidalarni buzish (278¹-modda) Axborot tizimlari va ma'lumotlar bazalari bugungi raqamli jamiyatning asosiy infratuzilmasi hisoblanadi. Ularning yaratish, joriy etish va foydalanish jarayonida belgilangan xavfsizlik talablariga amal qilmaslik jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Qonunchilikda bunday holatlar natijasida fuqarolar, davlat yoki jamoat manfaatlariga zarar yetkazilsa, bu jinoyat sifatida baholanadi. Bu norma asosan tizimlarni noto'g'ri tashkil etish, texnik himoya choralariغا beparvolik yoki axborot xavfsizligi standartlariga rioya qilmaslik holatlariga qarshi qaratilgan. Kompyuter axborotiga ruxsatsiz kirish va undan foydalanish (278²-modda).

Kiberjinoyatchilikning eng ko'p uchraydigan shakllaridan biri — bu kompyuter tizimlariga noqonuniy kirishdir. Bunda shaxsiy ma'lumotlar o'g'irlanishi, o'zgartirilishi yoki yo'q qilinishi mumkin. Shuningdek, bu turdagi harakatlar bank tizimlari, davlat portallari yoki yirik korporativ tarmoqlarning ish faoliyatiga ham jiddiy zarar yetkazishi ehtimoli mavjud. Ayniqsa, bunday jinoyatlar bir guruh shaxslar tomonidan yoki xizmat mavqeidan foydalanib sodir etilganda, ularning ijtimoiy xavflilik darajasi yanada ortadi. Kiberjinoyat vositalarini yaratish va tarqatish (278³-modda) Kiberjinoyatlarning oldini olishda muhim jihatlardan biri — ularni amalga oshirish uchun ishlatiladigan vositalarni cheklashdir. Maxsus dasturlar, zararli kodlar yoki ruxsatsiz kirish vositalarini yaratish va tarqatish kiberjinoyatchilikni kengaytiruvchi asosiy omillardan biridir.

Shu sababli qonunchilik faqat jinoyatning o'zini emas, balki uni amalga oshirishga xizmat qiluvchi texnik vositalarni tayyorlash va tarqatishni ham jinoyat sifatida belgilaydi. Axborotni o'zgartirish va kompyuter sabotaji (278⁴–278⁵-moddalar) Axborot tizimlaridagi ma'lumotlarning buzilishi yoki o'zgartirilishi nafaqat texnik muammo, balki huquqiy jihatdan ham og'ir oqibatlariga ega harakat hisoblanadi. Chunki bugungi kunda axborotning aniqligi va ishonchliligi ko'plab qarorlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Kompyuter sabotaji esa yanada og'irroq jinoyat bo'lib, u tizimlar yoki texnik uskunalarni qasddan ishdan chiqarishga qaratilgan. Bunday harakatlar ko'pincha yirik infratuzilma obyektlariga zarar yetkazishga

yo'naltirilgan bo'ladi. Zararli dasturlar bilan bog'liq jinoyatlar (278⁶-modda) Viruslar va boshqa zararli dasturlar zamonaviy kiberxavfsizlik uchun eng katta tahdidlardan biri hisoblanadi. Ular orqali axborot tizimlariga kirish, ma'lumotlarni yo'q qilish yoki ularni boshqarish imkoniyati paydo bo'ladi. Shu sababli bunday dasturlarni yaratish, ulardan foydalanish yoki tarqatish jinoyat sifatida baholanadi va og'ir javobgarlikni keltirib chiqaradi. Telekommunikatsiya tarmoqlaridan noqonuniy foydalanish (278⁷-modda) Telekommunikatsiya tarmoqlari global axborot almashinuvining asosiy vositasi bo'lib, ulardan noqonuniy foydalanish transmilliy jinoyatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Himoya tizimlarini chetlab o'tish, xalqaro trafikni noqonuniy yo'naltirish yoki maxsus vositalarni saqlash kabi harakatlar kiberxavfsizlikka bevosita tahdid soladi. Kripto-aktivlar sohasidagi huquqbuzarliklar (278⁸-modda) Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi kripto-aktivlar sohasini ham huquqiy tartibga solishni talab qildi. Litsenziyasiz faoliyat yuritish, anonim operatsiyalarni amalga oshirish yoki noqonuniy kripto-almashinuvlar moliyaviy tizim xavfsizligiga jiddiy xavf tug'diradi. Shu sababli ushbu sohadagi qonunbuzarliklar ham jinoyat sifatida belgilangan. Firibgarlik va o'g'rilikda axborot texnologiyalarining roli (168–169-moddalar) So'nggi yillarda firibgarlik va o'g'rilik jinoyatlari ham raqamli shaklga o'tdi. Elektron to'lov tizimlari, bank kartalari va internet platformalari orqali sodir etilayotgan jinoyatlar JKning 168 va 169-moddalari doirasida kiberjinoyat sifatida baholanadi. Bu holatlar fuqarolarning mol-mulkiga bevosita zarar yetkazishi bilan birga, raqamli iqtisodiyotga bo'lgan ishonchni ham pasaytiradi.

Mamlakatimizda kiberxavfsizlik choralari ko'rish va sohani rivojlantirish maqsadida 2022-yil 25-fevralda "Kiberxavfsizlik" to'g'risida qonun qabul qilingan. Ushbu qonunning mohiyatini tahlil qiladigan bo'lsak, mazkur Qonunning eng muhim jihati shundaki, u kiberxavfsizlikni faqat texnik masala sifatida emas, balki davlat siyosatining strategik yo'nalishi sifatida belgilaydi. Ya'ni kiberxavfsizlik endilikda alohida tashkilotlarning emas, balki butun davlat tizimining uzviy vazifasi sifatida qaraladi. Qonun axborot tizimlari va axborot resurslarining himoyasini ta'minlash, ularga noqonuniy kirishlarning oldini olish, shuningdek ma'lumotlarning maxfiyligi, yaxlitligi va mavjudligini saqlash kabi asosiy prinsiplarni mustahkamlaydi. Bu esa zamonaviy raqamli infratuzilmaning barqaror ishlashi uchun huquqiy kafolat yaratadi. Shuningdek, ushbu Qonun kiberxavfsizlik sohasida davlat organlarining vakolatlarini aniq belgilab beradi. Davlat tomonidan kiberxavfsizlik siyosatini ishlab chiqish, muvofiqlashtirish va nazorat qilish mexanizmlari joriy etiladi. Bu esa turli darajadagi axborot tizimlarida yagona yondashuvni ta'minlashga xizmat qiladi. Qonunning yana bir muhim jihati shundaki, u nafaqat davlat axborot tizimlarini, balki xususiy sektor va fuqarolarning axborot resurslarini ham himoya qilishni ko'zda tutadi.

KIBERJINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHISHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI

Kiberjinoyatchilik global miqyosda tez sur'atlarda rivojlanib borayotgan zamonaviy xavfsizlik tahdidlaridan biri hisoblanadi. Axborot texnologiyalarining chegarasiz tabiati sababli bunday jinoyatlar bir davlat hududi bilan cheklanib qolmay, bir vaqtning o'zida bir nechta davlat manfaatlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish faqat milliy darajada emas, balki xalqaro-huquqiy hamkorlik asosida amalga oshiriladi. Xalqaro huquqda kiberjinoyatchilikka qarshi kurash masalalari Xalqaro huquq tizimida kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish masalasi axborot xavfsizligini ta'minlash, transmilliy jinoyatchilikni oldini olish hamda davlatlarning raqamli suverenitetini himoya qilish bilan bevosita bog'liqdir.

Kiberjinoyatchilik sohasidagi eng muhim xalqaro hujjatlardan biri bu 2001-yilda qabul qilingan Budapesht konvensiyasi (Kiberjinoyatchilik to'g'risidagi konvensiya) hisoblanadi. Ushbu konvensiya Yevropa Kengashi tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u kiberjinoyatchilikka qarshi kurashishning huquqiy asoslarini belgilaydi. Konvensiyaning asosiy maqsadi — kompyuter tizimlari orqali sodir etiladigan jinoyatlarni aniqlash, tergov qilish va ularga qarshi samarali huquqiy mexanizmlarni yaratishdir. U quyidagi asosiy yo'nalishlarni qamrab oladi: Birinchidan, kompyuter tizimlariga noqonuniy kirish, ma'lumotlarni o'zgartirish yoki yo'q qilish kabi jinoyatlarni kriminalizatsiya qilish talablarini belgilaydi. Ikkinchidan, dalillarni raqamli shaklda saqlash va ulardan foydalanish bo'yicha protsessual qoidalarni ishlab chiqadi. Bu kiberjinoyatlar bo'yicha tergov jarayonini standartlashtirishga xizmat qiladi. Uchinchidan, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, ya'ni davlatlar o'rtasida tezkor ma'lumot almashish va huquqiy yordam ko'rsatish mexanizmlarini belgilaydi. Budapesht konvensiyasi kiberjinoyatchilikka qarshi kurashishda eng muhim universal hujjatlardan biri bo'lib, ko'plab davlatlar uchun namunaviy huquqiy asos sifatida xizmat qilmoqda.

Xalqaro hamkorlik va davlatlararo huquqiy yordam mexanizmlari Kiberjinoyatchilikning transmilliy tabiati davlatlar o'rtasida yaqin hamkorlikni talab etadi. Xalqaro huquqiy yordam mexanizmlari jinoyatchilarni aniqlash, dalillarni yig'ish va ularni javobgarlikka tortishda muhim ahamiyatga ega. Bunday hamkorlik doirasida davlatlar o'zaro huquqiy yordam so'rovlari (MLA – Mutual Legal Assistance) orqali ma'lumot almashadi, jinoyatchilarni ekstraditsiya qiladi hamda tergov harakatlarini muvofiqlashtiradi. Bundan tashqari, Interpol va boshqa xalqaro tashkilotlar orqali tezkor axborot almashinuvi yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, kiberjinoyatchilikka qarshi kurashishda milliy CERT (Computer Emergency Response Team) markazlari ham muhim rol o'ynaydi. Ular kiberhujumlarni aniqlash, tahlil qilish va ularni bartaraf etish bo'yicha xalqaro tarmoqlar bilan hamkorlik qiladi. Xulosa qilib aytganda, kiberjinoyatchilikka qarshi kurashishning xalqaro-huquqiy asoslari davlatlar o'rtasidagi

hamkorlik, Budapesht konvensiyasi va boshqa xalqaro mexanizmlar orqali shakllanib, global axborot xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi. Bu esa zamonaviy raqamli jamiyatda barqarorlik va xavfsizlikni saqlashning muhim sharti hisoblanadi.

MUHOKAMA

Kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish bugungi kunda nafaqat milliy huquq tizimining, balki xalqaro huquqning ham dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida ushbu sohada shakllangan normativ-huquqiy baza, xususan Jinoyat kodeksining normalari hamda "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi Qonun kiberjinoyatlarga qarshi kurashishning asosiy huquqiy poydevorini tashkil etadi. Mazkur normalar orqali axborot tizimlariga noqonuniy kirish, zararli dasturlar tarqatish, kompyuter sabotaji va kriptο-aktivlar bilan bog'liq noqonuniy harakatlar uchun javobgarlik belgilangan.

Shu bilan birga, amaliyot tahlili kiberjinoyatchilikka qarshi kurashishda ayrim muammolar mavjudligini ko'rsatadi. Eng asosiy muammolardan biri — kiberjinoyatlarning tezkor o'zgaruvchan xususiyatga ega ekanligidir. Ya'ni jinoyatchilar yangi texnologiyalar va yashirish usullaridan foydalangan holda an'anaviy huquqiy mexanizmlardan tezroq moslashib ketmoqda. Bu esa qonunchilikning doimiy ravishda takomillashtirib borilishini talab etadi.

Ikkinchi muhim masala — raqamli dalillarni to'plash va ularni protsessual jihatdan rasmiylashtirish jarayonidir. Kiberjinoyatlarda asosiy dalillar elektron shaklda bo'lgani uchun ularni yo'qotmasdan saqlash, tahlil qilish va sudga taqdim etish alohida texnik bilim va zamonaviy ekspertiza imkoniyatlarini talab qiladi. Ayrim hollarda esa ushbu texnik imkoniyatlarning yetarli darajada emasligi tergov jarayonini murakkablashtiradi.

Shuningdek, xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, kiberjinoyatchilik transmilliy xarakterga ega bo'lgani sababli davlatlar o'rtasidagi hamkorlik hal qiluvchi ahamiyatga ega. Budapesht konvensiyasi kiberjinoyatlarga qarshi kurashishning xalqaro standartini belgilab bergan bo'lsa-da, amaliyotda huquqiy yordam so'rovlari va ma'lumot almashish jarayonlarida ba'zan kechikishlar kuzatiladi. Bu esa jinoyatlarni tezkor fosh etishga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

